

## KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK SEMANTIZATSIYASI

Akbarov A

*Turon universiteti Sharq tillari kafedrasida o'qivchisi*

**Annotatsiyasi:** *Ushbu maqolada tilimizdagi ayrim ko'p ma'noli so'zlarning lug'atlarda berilishi, satsial muhitdagi o'rni, ma'no ko'chish usullari borasida ba'zi izlanishlar olib borildi. Buning uchun lug'atshunoslikning tarixiy va zamonaviy namunalaridan foydalanildi.*

**Annotation:** *In this article, some researches were conducted on the way some ambiguous words in our language are given in dictionaries, their place in the social environment, and the methods of meaning transfer. Historical and modern examples of lexicology were used for this purpose.*

**Tayanch so'zlar:** *ko'p ma'noli so'zlar, leksikografik semantizatsiya, monosemiya, polisemiya, metafora, metonimiya, leksik ma'no, hosila ma'no.*

**Kirish:** Tilning boyligi uning leksik sathini tashkil etgan so'zlarning miqdori bilangina emas, ularning ma'no nozikliklari, semantik imkoniyati, shu so'zlar yordamida vujudga kelgan badiiy tasviriy vositalar – frazeologik birikma, parafraza, idioma va boshqa birliklar bilan ham o'lchanadi. Shu bois muayyan xorijiy til bo'yicha nutqiy kompetentlikka ega bo'lish uchun shu tilning leksik birliklari yoki grammatik qonuniyatlarini o'zlashtirishning o'zigina yetarli emas, buning uchun tilning semantik imkoniyatlari, so'zlarning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari haqida ham tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Nutqiy faoliyatda leksik birlik – so'z boshqa til birliklariga qaraganda muhim rol o'ynaydi.

Odatda, izohli lug'atlarda ham hosila ma'noning lisoniylashgan ko'rinishlari talqin qilinadi. Masalan, O'zbek tilining izohli lug'atida *urmoq* fe'lining 19ta, *tortmoq* fe'lining 21ta, *tutmoq* fe'lining 18ta, *tushmoq* fe'lining 24ta ma'nosi izohlanadi. Hosila ma'nolar umumlashib yoki qo'llanish doirasi kengayishi, ixtisoslashishi natijasida ko'chma ma'nolar alohida-alohida sememalar sifatida rivojlanadi. Lug'atda ushbu ma'nolarning barchasi mustaqil semema sifatida kira olmaydi. Bu sememalarning ko'pchiligi muayyan sememaning nutqiy ko'rinishlari (variantlari) dir. Ammo ayni vaqtda ayni sememalarning ichida alohida, mustaqil hisoblanish mumkin bo'lgan sememalar ham mavjud. Demak, nutqiy hosilalardan – so'zlardan leksemalar rivojlangani kabi nutqiy ko'chma ma'nolarda sememalar ham rivojlanishi mumkin<sup>14</sup>. Masalan:

**TUTMOQ 1.** Qo'l bilan ushlamoq, ushlab turmoq; tutinmoq. Bir qo'lida kitob, bir qo'lida guldasta tutib turmoq.

2. Ovlab, quvib, izidan borib va sh. k. yo'llar bilan ushlamoq, ushlab olmoq, qo'lga tushirmoq. Baliq tutmoq.

3. Biror narsani iltifotan kimsaga taklif qilmoq, uzatmoq; foydalanish uchun to'g'rilamoq, bermoq. Mehmonlarga sochiq tutmoq.

<sup>14</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б. – Б.76.

4. Qo'lidagi (o'zidagi) biror narsani boshqa narsaga to'g'rilamoq, ro'baro' holga olmoq. Xatni chiroq yorug'iga tutib o'qimoq.

5. ko'chma: Yo'q bo'lish, ketish va sh.k. dan saqlab turmoq. Hokimiyatni tutib turmoq.

6. Biror holat, vaziyatda saqlamoq, asramoq. Saidbobo negadir tili uchida turgan gapni yutib, sukut tutdi.

7. **ko'chma:** Biror narsadan o'zini tiymoq yoki biror narsani, voqeani yuz berishdan to'xtatmoq, bosmoq, ushlamoq. U ko'zlariga to'lgan tomchilarni bazo'r tutib javob berdi. O'zini baland tutmoq. Ertalab yana qonli urushlar boshlandi. Ammo xalq endi o'zini ancha tutib qolgan edi.

8. **ko'chma:** Idora qilmoq, boshqarmoq. Ro'zg'or tutmoq.

9. **ko'chma:** O'z qo'li ostidagi, izmidagi, qaramog'idagi kimsalarga qandaydir munosabatda, muomalada bo'lmoq. Bolani bo'sh tutish yaramaydi.

10. Biror tarzda ishlatmoq, foydalanmoq, qo'llamoq. Idish-tovoqni, ko'rpa-yostiqli toza tutmoq.

11. Parvarish qilmoq, boqmoq (pilla qurtini). Men, beshovlaring qurt tutinglar, beshta odam bo'shasin, demochi emasman.

12. Ishlatish, foydalanish uchun o'z ixtiyorida, qaramog'ida olib turmoq, saqlamoq. Qani iloji bo'lsa, bitta odam tutmasdan, butun ishni o'zim eplay olsam.

13. Pardalash, to'sish, qoplash va sh.k. maqsadlar uchun o'rnatmoq, bog'lab, ilib yoki osib qo'ymoq. Pashshaxona tutmoq.

14. Ko'payib, tarqalib, yoyilib va sh. k. yo'llar bilan ma'lum joyni egallamoq, qoplab olmoq, bosmoq. Samovarning bug'i uyni tutib ketdi.

15. Qo'zimoq, qo'zib qolmoq, huruj qilmoq (odatda, inson tabiatida bo'ladigan turli xislatlar haqida). Otaning tantiligi tutib ketdi. Uning jazavasi tutdi.

16. Amal olmoq, o'smoq, rivojlanmoq (yangi ko'chat yoki payvand haqida). Onda-sonda ko'chatlar o'tqazilgan ekan-u, ko'pi tutmapti.

17. Yordamchi fe'l sifatida bog'lovchi vazifasida qo'llanadi; hisoblamoq. Parvozga shaylanib nochor nam urgan Yarador burgutga mymmangiz oson.

18. Ba'zi so'zlar bilan qo'llanganda, shu narsa evaziga biror narsaga duchor bo'lmoq, uning haqidan qutula olmaslik ma'nosini bildiradi. Mening begunoh qonim tutadi hammangni.<sup>15</sup>

Ko'rinib turibdiki, sanalgan 18 ta ma'nodan faqat 5-, 7-, 8-, 9-ma'nolar ko'chma pometasi bilan berilgan. Ko'p ma'noli so'z matnda faqat bitta semasi bilan nutqiy voqelanadi. Lug'atda esa har bir ma'noni izohlash uchun alohida illyustratsiya – qurshov keltiriladi. Shuningdek, muayyan leksema turli usullarda ko'chma ma'no hosil qilishi mumkin. Lug'atlarda hosila ma'nolar talqin etilganda ko'chma pometasi bilan beriladi, qaysi yo'l bilan hosil bo'lishiga diqqat qaratilmaydi. Masalan,

### ***DASTURXON***

<sup>15</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 606 б. –Б. 208-211.

1 - O'rtaga yozib, ustiga ovqat qo'yiladigan maxsus mato, ro'zg'or buyumi<sup>16</sup>. Ushbu ma'no *dasturxon* leksemasining atash semasi hisoblanib, quyidagi matnda o'z ma'nosi bilan voqelangan: Qaymoqqa qorilgan nonlar bilan to'la *dasturxon* yozib, achchiq choyni quya boshladi. (Oybek, Tanlangan asarlar;)

Lug'atda leksemaning

2 - Oziq-ovqat, noz-ne'mat. *Dasturxonga qarang*. To'kin dasturxon;

3 - Turmush tarzi, ijtimoiy holati. *Dasturxonga boqqan do'st emas*.

4- Ovqatlanish uchun kirishmoq. Bu orada Hamza ham hujrasidan chiqib, *dasturxonga o'tirdi*. (K.Yashin, Hamza.)

5 - Ovqatlanishga da'vat. Qani, *dasturxonga qarang*. (K.Yashin, Hamza.)

6 - Ziyofat, gap-gashtak. Jamoamizning barchasi ham hozir bo'lib, *dasturxon* yer erdik. (A.Qodiriy, G'irvonlik Mallavoy.)

7 - Ichidagi dardini, muammolarini hammaga oshkor qilmoq, yoymoq. Biror gapni har qayerlarda har kimlarga gapirib, ovoza qilib yurmoq. Siz kimga yaxshi ko'rinmoqchi edingiz, yolg'on gapni *dasturxon* qilib yuribsiz? (P.Qodirov, Qadrim). Choyini ichib, piyolaning chetini kafti bilan artarkan, yuragidagi dardini *dasturxon* qilishga kirishdi. "Yoshlik".

8 - Yaxshilikni bilmasklik, nonko'rlik. Nonini yeb, *dasturxon*iga oyoq artdi.

9 - Mamlakat, jamiyat boyligi, rizq-ro'zi. Sendaqa paytimizda biz, nainki mashoq, og'zimizdagi nonimizni ham el *dasturxon*iga qo'yganmiz. (O.Yoqubov, "Er boshiga ish tushsa") - kabi turli ifoda yoki vazifa semalarining voqelanishi ham illyustrativ asoslar bilan tushuntiriladi.

Ushbu ma'nolardan

2-(Dasturxonga qarang),

3-(Dasturxonga boqqan do'st emas),

4-(...hujrasidan chiqib, dasturxonga o'tirdi),

5-(Qani, dasturxonga qarang),

6-(Jamoamizning barchasi ham hozir bo'lib, dasturxon yer erdik) ma'nolar metonimiya,

7-(...yolg'on gapni dasturxon qilib yuribsiz),

8-(Nonini yeb, dasturxoniga oyoq artdi),

9-(...og'zimizdagi nonimizni ham el dasturxoniga qo'yganmiz) ma'nolar metafora asosida hosil bo'lgan.

Demak, ko'p semali leksema o'zining har bir semasi bilan turlicha leksemalar bilan o'xshashlik va qo'shnihilik munosabatlariga kirishadi. Uning umumiste'moldagi va ixtisoslashgan ma'nolari - jamiyat a'zolarining barchasi uchun tushunarli bo'lgan ma'nolari lug'atlarda izohlanadi. Ikki tilli o'quv lug'atlarida ko'p ma'noli so'zlarni leksikografik semantizatsiyalashda ularning, asosan, hozirgi o'zbek yoki ingliz adabiy tilida keng qo'llanadigan ma'nolari beriladi. Izoh tipidagi lug'atlardan farqlanib, mazkur lug'atlarda quyidagi lisoniylashmagan nutqiy ko'chma ma'nolarga izoh berish talab etilmaydi:

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б. –Б. 574

- 1) ijodkorlar tomonidan poetik maqsadda qo'llangan, adabiy tilda uchramaydigan nutqiy ma'nolar;
- 2) ayrim ilmiy asarlarda vaziyat taqozosiga ko'ra shartli ravishda ishlatilgan ko'chma ma'nolar;
- 3) qo'llanishi chegaralangan terminologik ma'nolar;
- 4) tor doirada ishlatiladigan dialektal ma'nolar;
- 5) tarixiy yoki ijtimoiy, siyosiy eskirgan, arxaik ma'nolar;
- 6) faqat so'zlashuv nutqida uchraydigan yoki ijtimoiy chegaralangan jargon, sleng, vulgarizm, varvarizm sifatida qo'llanadigan ma'nolar.

Har qanday so'z dastlab bir ma'noli bo'ladi. Leksik ma'no tarixiy taraqqiyotda bo'lib, davr nuqtai nazaridan o'zgarib – torayib, kengayib boradi. Zamonaviy leksikografiyaning eng muhim muammolardan biri – turli tillarga xos leksik-semantik imkoniyatlarni sinxron aspektida qiyosiy tadqiq etishdir. Bu ko'p ma'noli so'zlar leksikografik talqiniga diaxron emas, sinxron aspektida yondashishni taqozo etadi. Hatto XI asrning buyuk leksikografi M.Koshg'ariy ham lug'at so'zligini tartiblashda avvalo “*turmushda qo'llanadigan va qo'llanilmaydigan*” so'zlarni tanlab olgan. Lug'at tuzilgan davrda har ikki xalq tilida iste'molda bo'lgan so'zlarnigina so'zlik (lug'at)ga kiritgan. Iste'moldan chiqqan, eskirgan so'zlarni qoldirganini muallif ta'kidlab o'tgan: “*Tushunilishi oson bo'lsin uchun asarda arabcha istiloh (termin)larni qo'lladim. Kitobni tuzish oldida Xalil ibni Ahmadning “Kitobul ayn” asarida tutgan tartibini qo'llash, iste'moldan chiqqan so'zlarni ham bera borish fikri menda tug'ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatidan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarning foydalanish masalasiga asoslandim. Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir*”<sup>17</sup>.

Polisemantik so'zning muayyan davrda faol bo'lgan ma'nosi davrlar o'tishi bilan istemoldan chiqishi yoki kuchsizlanishi mumkin. Masalan, “Devonu lug'otit turk”da: **јѣгач** – daraxt. **Ўзўм јѣгачи** – uzum daraxti. **Јагак јѣгачи** – *yong'oq daraxti*<sup>18</sup> tarzida talqin qilinadi. M.Koshg'ariy yashagan davrda yog'och – daraxt, uzunlik o'lchovi, o'tin ma'nolarini anglatgan. Ba'zi birikmalarda **og'och** tarzida qo'llangan: Beshog'och (Beshyog'och). Ayni paytda bu so'z **ustun, xoda, novda** ma'nolarida qo'llanadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, o'quv lug'ati, xoh u tarjima lug'ati bo'lsin, hoh izohli lug'at, so'z ma'nosining semantik taraqqiyotini yoritishni maqsad qilib qo'ymaydi. Bu katta lug'atlar, akademik lug'atlarning vazifasi. Hatto ayni paytda iste'molda bo'lgan leksemaning ko'chma ma'nolari eskirgan bo'lsa ham, o'quv lug'atlarda ushbu ma'noga izoh berish shart emas. Masalan, **samovar** yaqin davrlarga qadar til iste'molchilari ongida choyxonaga aloqador narsa-buyum nomi sifatida yashagan. Choyxona va samovar assotsiativ birliklar hisoblangan va biri aytilganda ikkinchisi tushunilgan: “*Ertalabdan samovar odamlar bilan gavjum*”. Ammo bugungi

<sup>17</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Туркий сўзлар девони. 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. – Тошкент: ФАН, 1960. – 250 б. – Б.45-46

<sup>18</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Туркий сўзлар девони. 3 жилдлик. 3-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. – Тошкент: ФАН, 1960. – 234 б. –Б.15

kunda samovarlilar oʻrnini yangi texnologiyalarga boʻshatib berdi va *samovar* soʻzi ham arxaizmga aylandi. *Samovar* leksemasi lugʻat soʻzligidan joy olsa-da, uning metonimiya asosida hosil boʻlgan “choyxona” maʼnosini oʻquv lugʻatlarda izohlash shart emas.

Koʻp maʼnoli soʻz bir paytda oʻz shakldoshiga ham ega boʻlishi mumkin. Koʻp maʼnoli soʻzlarni leksikografik talqin qilishda ayrim koʻp maʼnoli soʻzlarning shakldoshlari mavjud boʻlib, ularning aksariyatining koʻchma maʼnolarga ega boʻlishi. Maʼlumki, koʻp maʼnolilik, odatda, oʻz qatlam soʻzlarida kuzatiladi. Biroq muayyan tilga mansub koʻp maʼnoli oʻzlashma soʻz boshqa tilga faqat bosh maʼnosi bilan emas, koʻchma maʼnolari bilan ham oʻzlashishi mumkin. Shu bois soʻzlarni tarjimada aks ettirish muammolari tilshunoslik, jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham allaqachonlar tilshunoslik kun tartibiga olib chiqilgan<sup>19</sup>. Muayyan tilda koʻchma maʼnolariga ega boʻlgan soʻz ikkinchi tilga oʻzlashganda faqat bosh maʼnosi bilan emas, odatda, koʻchma maʼnolari bilan ham oʻzlashadi. Masalan, fors-tojikcha *dast* (qoʻl) soʻzidan metonimiya asosida hosil boʻlgan *dasta* soʻzining hozirgi oʻzbek tilida barchasi fors tilidan oʻzlashgan toʻrtta shakldoshi mavjud:

**DASTA I** [f. دستة - sop; tutqich] tutqich.

**DASTA II** [f. دستة] Keli (oʻgʻir)da narsa oqdashda (tuyishda) ishlatiladigan tutqichli asbob, kelisop.

**DASTA III** [f. دستة] shv. Chillak.

**DASTA IV** [f. دستة] - guruh; toʻda; bogʻlam, toʻp.

Ushbu soʻzlardan I va IV soʻzning uchtadan beshtagacha koʻchma maʼnolari mavjud. *Sop*, *tutqich* maʼnoli *dasta* soʻzi “*qoʻl bilan ushlanadigan qismiga ega boʻlgan narsa-buyunning shu qismi nomi*” maʼnosini ifodalaydi. Shu bilan birga u metafora yoki metonimiya asosida koʻchgan bir necha ifoda semalariga ham ega boʻlib, oʻzbek tiliga u atash va ifoda semalari bilan birga oʻzlashgan:

**DASTA I** [f. دستة - sop; tutqich]

1 Turli asboblarning qoʻl bilan ushlanadigan qismi; sop. Bolta *dastasi*. Pichoq *dastasi*. “Pichoq dastasini qattiq qisganidan, tirmogʻi kaftiga botib ketdi”. “Yoshlik”. “*Dastasi boʻlmasa, qilich ham kesmaydi*”. “Qanotli soʻzlar”.

“*U kichkina.. ketmonini yerga qadab, dastasiga oʻtirdi*”. S.Siyoyev, Yorugʻlik.

2. *Tutqich, tutqa, qabza*. Eshikning dastasi. “*Gulnor bir qoʻli bilan derazaning dastasini ushladi*”. Oybek, Tanlangan asarlar.

“*Bekning chayir qoʻli begona chamadonning dastasini ushlaganicha tinchidi*”. A.Muxtor, Tugʻilish.

“*Chashkaning dastasidan tutib, qora choy ichsa, juda gashtli boʻladi*”. N.Aminov, Qahqaha.

<sup>19</sup> Абдуллаева Л. Метафоралар ва уларнинг таржима қилиниши ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1965. 1-сон.

3. Musiqa asbobining tor (ip, sim) tortilgan va qo‘l surib, parda bosiladigan qismi. Dutorning *dastasi*.<sup>20</sup>

Bundan tashqari *dasta* so‘zi bir qancha tojikcha qo‘shma so‘zlar tarkibida qatnashib, o‘zbek tiliga tayyor holda o‘zlashgan: *dastro‘mol* (qo‘lro‘mol), *dastgoh* (inson qo‘li bilan boshqariladigan asbob-uskuna), *dastyor* (qo‘lidan ish keladigan bola, yordamchi), *dastak* (hassa, asos)<sup>21</sup> kabi. Hatto tarkibida ma‘nodoshi bo‘lgan turg‘un birikmalarda o‘zaro almashinib variantlilikni yuzaga keltirgan: *dastasini o‘zidan chiqarmoq / sopini o‘zidan chiqarmoq*.

Xullas, muayyan tilni o‘rganishda ko‘p ma‘noli so‘zlarning ko‘chma ma‘nolari va ularning muhimlik darajasini bilish, ulardan o‘rinli foydalanish, kontekstual ma‘nolardan nutqda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda til egalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Туркий сўзлар девони. 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. – Тошкент: ФАН, 1960. – 250 б. – Б.45-46

2. Абдуллаева Л. Метафоралар ва уларнинг таржима қилиниши ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1965. 1-сон.

3. Рустамов.А. Каримов. Қ. Умаров. З.Форсча-ўзбекча ўқув луғати.Т. Ўқитувчи. 1975

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.

5. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

<sup>20</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б. –Б. 570

<sup>21</sup> Рустамов. А. Каримов. Қ. Умаров. З. Форсча-ўзбекча ўқув луғати. Т. Ўқитувчи. 1975. – Б. 54-83.